



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## **O‘ZBEK XALQ EPIK IJODIDA E’TIQDIY TAFAKKUR TALQINI**

**Tohir Shermurodov**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, PhD

### **Annotatsiya**

Xalq og‘zaki ijodi dostonlari millat tarixiy-e’tiqodiy tafakkurining poetik ko‘zgulari hamdir. Ular xalqning muayyan davrlardagi ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-estetik, diniy-ma’rifiy qarashlarini ham o‘zlarida badiiy aks etdiradi. O‘zbek folklorshunosligida islomiy-ma’rifiy tafakkur tarzining xalq dostonlaridagi ifodasi maxsus o‘rganilmagan. Ushbu maqolada mazkur masalaga munosabat bildiriladi. Qahramonlik dostonlari bo‘lgan “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” silsilalarida, ulardagi qahramonlar xarakterida e’tiqod tarzining talqini kuzatiladi. Islomiy ma’rifatga asoslangan yashash tarzining dostonidagi pafosi, tamoyillari haqida ilmiy xulosalarga kelinadi.

**Kalit so‘zlar:** doston, sinkretik bosqich, diniy tafakkur, epos, etnos, poetik mahorat, ma’rifiy asos.

## **ИНТЕРПРЕТАЦИЯ РЕЛИГИОЗНОГО МЫШЛЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ НАРОДНОМ ЭПИЧЕСКОМ ТВОРЧЕСТВЕ**

**Тохир Шермуродов**

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, PhD

### **Аннотация**

Народные эпические произведения устного творчества являются поэтическим отражением историко-религиозного мышления нации. Они художественно передают социально-политические, философско-эстетические и религиозно-просветительские взгляды народа определённых исторических периодов. В узбекском фольклороведении выражение исламско-просветительского мировоззрения в народных эпосах специально не исследовалось, и данная статья посвящена рассмотрению этой проблемы. В героических эпосах Алпомиш и Гёроглы анализируется интерпретация религиозного сознания в характерах героев. В результате исследования сформулированы научные выводы о пафосе, художественных принципах и просветительской основе образа жизни, основанного на исламском мировоззрении, представленного в эпосах.

**Ключевые слова:** дастан, синкретический этап, религиозное мышление, эпос, этнос, поэтическое мастерство, просветительская основа.

## **INTERPRETATION OF RELIGIOUS THINKING IN UZBEK FOLK EPIC CREATIVITY**

**Tohir Shermurodov**

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoiy, PhD

### **Abstract**

Folk epic works are poetic reflections of the historical and religious worldview of a nation. They artistically represent the socio-political, philosophical-aesthetic, and religious-educational ideas of the people in particular historical periods. In Uzbek folklore studies, the expression of Islamic educational thought in folk epics has not been specifically investigated, and this article addresses this issue. The heroic epics Alpomish and Go‘ro‘g‘li are analyzed in terms of how religious consciousness is interpreted through the characters of their heroes. The study draws scientific conclusions about the pathos, artistic principles, and educational foundations of a lifestyle based on Islamic enlightenment as reflected in the epics.

**Keywords:** epic poem, syncretic stage, religious thinking, epic, ethnos, poetic mastery, educational foundation.

Yozma epik ijod tartib-qoidalarining, shartlari, talablarining shakllanish, barqarorlashish ildizlari shu yo‘sin ijodchilikning ilk manbai, asoschisi va zamonlar osha hamrohi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi, xususan, uning bir qancha ko‘rinishda tasniflanadigan dostonchiligidadir. Ikki yo‘nalishdagi adabiy ijodchilik jarayoni ham hamma vaqt shunday taraqqiy topib, qat‘iylashgan epik adabiyotga qaratilgan adabiy-nazariy qoida-qonuniyatlarga amal qilgan holda ijodlanadi. Xalq dostoni tasnifiga ko‘ra qanday mavzu, motivda bo‘lmasin, qaysi turkumga mansublik kasb etmasin, undagi yangilanish jarayonlari qachon, qay tarzda sodir bo‘lgan bo‘lmasin, uning qadr-qimmatini barcha davrlarda undagi qahramonlarning

ijtimoiy-axloqiy, ma'naviy-e'tiqodiy qarashlari, shu qarashlari asosidagi harakatlari, kurashlarining ta'sirchanligi, bundagi badiiy talqinning nechog'lik jozibadorligi bilan o'lgan, baholanib kelgan.

“Xalqning mifologik tafakkurdan poetik idrok qilishga o'tishi va uning samarasi bo'lgan bugungi ma'nodagi folklor merosi shunchalar murakkabki, uning ayrim namunalari hozirgacha ibtidoiy jamoa tuzumi va undan keyingi ilk madaniy bosqichlarning izlaridan to zamonaviy maishiy turmush hamda qarashlarning qayta-qayta poetik mushohada qilingan badiiy ifodalarigacha ko'rishimiz mumkin” (Eshonqulov, Ergashev, 2022: 14). O'zbek xalq dostonlari tadqiqiga ularda mujassam qadimiylik alomatlarini asosida yondashilsa ham, keyingi asrlardagi o'zgarishlari nuqtayi nazaridan qaralsa ham, ular nufuzlarini ta'min etgan bosh g'oyaviy-estetik fazilat, shubhasiz, islomiy-ma'rifiy pafos ekanligi ma'lum bo'ladi. Bu ulug'vor motiv barcha dostonlarda hayotiy, tarixiy, ilg'or uch xil konfliktning qizg'inlashtirilgan badiiy talqini orqali yuzaga chiqadi va hamma davrlarga davrdoshlik kasb etib keladi. Ular:

1. Ichki diniy-e'tiqodiy va ijtimoiy-siyosiy muhitning tashqi muhit bilan ziddiyati. Bu konflikt dostonlarda ezgulik va yovuzlik, haq va nohaq kuchlar o'rtasidagi kurash sifatida namoyon bo'ladi. Qahramonlarning diniy-axloqiy qarashlari, e'tiqodi va ma'naviy pozitsiyasi voqealar rivojini belgilaydi. Natijada badiiy ziddiyat ikki tomon vakillarining olam, odam va e'tiqod haqidagi qarashlari asosida shakllanadi.

2. Ichki ijtimoiy-maishiy muhit doirasidagi ziddiyat. O'zbek xalq dostonlarida bir xalq yoki yurt mutlaq yaxshi, boshqasi esa butunlay yomon sifatida tasvirlanmaydi. G'anim tomonida ham ezgulikka moyil kishilar, musulmonlar orasida esa yovuz va botil amalli kimsalar uchrashi ko'rsatiladi. Bu holat dostonlarning hayotiyliigi va falsafiy xolisligini kuchaytiradi.

3. Qahramonlarning botiniy olamidagi ziddiyat. Doston qahramonlari ham xato va gunoh qilishi, iztirob chekishi, pushaymon bo'lishi mumkin. Ularning ichki kechinmalari, o'zini oqlashga urinishlari obrazlarni tabiiy va ishonarli qiladi. Bunday ichki ziddiyatlar qahramon xarakterining murakkabligini ochib beradi.

Doston yozma adabiy ijodda ham, xalq og'zaki ijodida ham el-yurtning, millatning ma'naviy-maishiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-estetik qarashlarini o'z milliy-mahalliy tarixi voqeligi asosida keng tasvirlab beruvchi, ayni choqda, ijodkor yoki xalq poetik tafakkurining salohiyat darajasini ko'rsatuvchi va belgilovchi yirik janr sanaladi. Bu janrda qilingan ijodiy muvaffaqiyat yozma adabiyotning nisbiy va shartli deb ko'riladigan liro-epik turidagina e'zozlansa, xalq og'zaki ijodida esa bu boradagi muvaffaqiyatli natija butun boshli xalq adabiyotining iftixori sifatida qaraladi. Ilmiy-nazariy jarayonda aynicha munosabatlarning sobitligi tabiiyligi tufayli o'rindir. O'zbek folklorshunoslik ilmining qizg'in shakllanishi mustabidlik davrida kechganligi sababli, bu sohaning keyingi yillarda ham ko'plab muammomasalalari tadqiqida katta natijalarga erishilishiga qaramay, talqinga sho'ro tuzumining islomiy e'tiqodga qarshi, tazyiqkor, majburiy siyosiy mafkurasi hukmronlik qilgani sir emas. Bu hol o'zbek xalq dostonlarining g'oyaviy-mazmuniy tasniflanishi, xalq adabiyoti ijodchi-ijrochilari bo'lgan baxshilarning tavsiflanishida ham kechdi. Tarixiyliigi va repertuarlarining g'oyaviy yo'nalishi nuqtayi nazaridan ham xalq epik poeziyasining yaratuvchi, kuylovchilari ishonchsiz taxminlar, gumonlar asosida sinfiylashtirildi. Birinchi guruhga saroy shoirlari, qalandarsifat maddohlar, umuman, saroy amaldorlariga xizmat qiluvchi baxshilar, ikkinchi guruhga oddiy xalqqa, mehnatkashlarga ularning ma'rakalarida kuylab beruvchi baxshilar kiritildi. Ikkinchi toifa ma'qullanib, sohaga asos qilib olindi. Bularda diniy motivlar, sovetcha qarashlarga zid e'tiqodiy elementlar yo'q deb hisoblandi. Aslida bu holatda ham diniy-e'tiqodiy qarashlardan mosuvo bo'lish yo'q edi. Hokim sinfga tobe hisoblangan baxshilar faqat “diniy xarakterdagi asarlar” ijrochilari, “o'tmishdan kelayotgan xalq dostonlarini islom mistikasi ruhida qayta ishlab chiqqanlar” deb ayblandi [“O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi”, 1980: 198].

Dostonchilik vujudga kelishining qadimiy sinkretik bosqichlariga yetarli ilmiy e'tibor qaratilmadi. Uzoq yillar an'anaga aylantirilgan va avlodlarni vaqtincha ishontirib kelgan bu qarashlar zamirida manfur tuzumning xalq o'tmishini qoralash, uni savodsiz ko'rsatish, islom dinini batamom inkor qilish g'oyasi turibdi. Noxolis bu kabi yondashuvlarning barchasiga davr olimlari emas, ularni shunday talqinlashga majbur etgan siyosat aybdor. Albatta, folklorshunoslik uchun xalq og'zaki ijodi asarlari yaratilishining ilk davrlarini aniqlash, ularga keyingi asrlarda kirib qolgan g'oyalar, motivlarni hisobga olish, asarlarning baxshilar tomonidan qilingan xilma-xil yangilanishlarini tahlil qilish muhim tadqiqiy jarayondir. Biroq asarlar, ayniqsa, g'oyaviy-badiiy maydoni keng, syujet qamrovi katta, obrazlar tizimi cheklanmaydigan janr – xalq dostonlari davrlar davomida qanchalik o'zgarishlar, sayqallanishlarni boshidan kechirmasin, odatda, o'z qadim asoslarining talay belgi, lavha, tushunchalarini saqlab qoladi. Bu tabiiylik ulardagi badiiy voqelikda, qahramonlarning o'zaro munosabatlarida namoyon bo'luvchi

dunyoqarash, madaniyat, axloq, e'tiqod tarzlarini oydinlashtirsa oydinlashtiradiki, boyitsa boyitadiki, yomonlashtirmaydi. Ayni tadqiqiy, mulohazaviy jarayonda asarlarning qadimdan buyon bo'lib kelayotgan o'zgarish alomatlaridan ko'ra, ularning bugungi mavjud matni, holati, ta'sirdorligi, jamiyatimiz, ma'naviyatimizga, tafakkur tarzimiz taraqqiyotiga foydasi masalasi birinchi o'ringa chiqadi. Zotan, "epos – bu xalqning qahramonlik idealizatsiyasi ko'lamidagi jonli o'tmishi bo'lib, uning ilmiy-tarixiy qimmatini, juda katta ijtimoiy, madaniy-tarbiyaviy ahamiyati ham shundadir" [Жирмунский, 1962: 195]. Demak, har qanday holda asarlar davr ma'naviy manfaatiga ko'ra xolis, odil tahlil etilmog'i, baholanmog'i joiz bo'ladi. Dunyo xalqlari og'zaki ijodida tengi yo'q doston – Alpomish mohiyatining xalq islomiy-ma'rifiy tafakkurini ifoda etuvchi ba'zi qirralariga e'tibor qaratib ko'raylik.

Baxshiyona syujeti boshdan oxir jo'shqin drammatizmga, qahramonona sarguzashtga, o'ta ta'sirchan epizodlarga boy, eshituvchisi yoki o'quvchisini favqulodda ziddiyatli muomala-munosabatlarga, ruhiy g'alayon va tug'yonlarga mahliyoqlikdan bir lahza bo'lsin uzoqlashtirmaydigan "Alpomish"ning kuchli joziba quvvatini ta'min etgan tub omil undagi tomonlar va betakror obrazlarning butun xalq ruhini o'zida mujassam etgan umuminsoniy tafakkur tarzi hamda shu ruhiy jarayonlar harakatlantirgan, sodir qilgan badiiy voqelik tizimidadir. Bu xos umuminsoniylik esa odamzod uchun yagona ishonchli bo'lgan diniy e'tiqod zaminidan – islomiy dunyoqarash, shar'iy turmush kechirish, barcha masalalar mohiyati, muammosi, yechimiga shundagi mezonlardan kelib chiqib yondashish, shu mavqedan turib qilingan xatti-harakatlar, kurashlar ruhi, pafosidan taraladi. Dostonni istalgan yo'nalishda tahlil qilib, tadqiq etib, ushbu ta'rif-xulosaning o'nlab dalillariga guvoh bo'lish mumkin. Doston qahramonlari tabiatida tavhid – Xudoni bir va bor zot deb idroklash batamom hukmron. Har qanday vaziyatda Xudoga shak keltirish kayfiyati sodir etilmaydi, ammo islomdagi ko'rsatmalarga amal qilmaslik bunda ham barcha zamonlardagi kabi tabiiy talqinga ega. Bunda ham amalsizlik – hamma ko'rgiliklar, musibatlar sababchisidir.

O'n olti urug' Qo'ng'iro't urug'ida ro'y bergan taffriqa – boy Boysarining o'z akasi shoy Boybo'ridan kelgan zakot haqidagi taklifga g'azablanib, qattiq arazlab, "o'n ming uyli ekin ekmoqni bilmaydigan", "moli yo'q degan kambag'alining qirq ming tuyasi bor, qo'yining sonini-adadini o'zlari ham bilmas" eliboylari bilan Qalmoq yurtiga, Kashal eliga ko'chib ketishi ana shu amalsizlikning, o'zini musulmon bilgan kishi fe'lidagi takabburlik, xasislik, qaysarlikning butun doston mazmunini belgilab bergan bir ko'rinishidir. Deyarli barcha qahramonlar o'z boshlariga tushgan sinovlar, yaxshi-yomon ishlarning Qodir Xudodan ekanligiga iqror. Najotni, mushkullar yechimini ham Undan so'rashadi, shukronali yashaydi, hayotdagi xato va gunohlariga nadomat qilishadi: "Har gap bo'lsa, taqdirimdan ko'rarman", "Qanday bo'lsa, taqdirima tan berdim" (Boysari); "Ko'nmaganda nima iloj qiladi, Taqdir-qismat shunday bo'lib qoladi" (Jilovdor qul); "Hala, deymen, manglayimdan kun o'tdi, Meni taqdir shunday kulfatga eltdi" (Qaldirg'och); "Men yig'layman yaratganga zor-u zor, Ne qilsa hukmi bor qudratli Jabbor", "Bolam rozi bo'ldi Tangri ishiga" (Barchinoy); "Shunday bo'ldi menga Haqning farmoni" (Alpomish); "Sag'irligim yaratgandan ko'raman" (Yodgor); "Falakning gardishi – Olloning ishi", "Shum falak gangitdi aziz boshimni", "Azali taqdirim shunday bo'ladi" (Boybo'ri).

Islomda bo'lmagan, dushmanlashgan taraf – Qalmoq elining Qorajon, Toychixon, Kayqubod, Tovka oyim singari ayrim vakillari ham yakxaxudolik e'tiqodidagi nufuzlari bilan namoyon bo'ladi. Dostonda bu el dinining botilligiga, butlarga sig'inishiga dalillar keladi.

Doston qahramonlarining o'zaro aytim-muloqotlarida ularning biri boshqasiga islom qoidalariga rioyatni, musulmonlik odoblarini uqtirishlari bor. O'z hollarini islomiy mulohazalash, baholash, bayonlashlar ko'p. Jumladan, Shakarman tog'idagi qavm – ovchi-merganlar qavmi. Bir kampirning mergan o'g'li qachondir bir g'ozni otolmay, faqat yarador qilishgagina ulgurganidan xijolatda, buni ulkan oriyat bilib, o'ziga kelolmay yuradi. Alpomish chohda davolagan va u orqali singlisi Qaldirg'ochga xat yuborgan bu g'oz parvozi davomida Shakarmanga dam olish uchun qo'nadi. Uning g'ang'illashini eshitgan mergan otishga qasdlanar, tezkor harakatga tushar ekan, onasi qarshilik ko'rsatadi. Ona g'ozni xavfdan ogoh etib, mergan o'g'liga xalaqit berib, qushni qutultirib yuboradi, o'g'liga nasihat qiladi: "Qanday bo'lsa, g'ozni o'ldirma, Musulmonsan, bunday ishni qilmagin... Bekning elchisiga dushman bo'lmagin... Imonsiz o'lasan...". Yana qo'shimcha qiladi:

Arza xati qarz bo'p qolgan bo'yningga,

Mahshar kuni nima javob berasan?

Alpomish deb bor edi e'tiqodim...

Qalmoqlik alp aka-ukalarning biri – Qorajonning avval g'ayban, so'ngra amalan Hakimbek bilan Xudoni o'rta qo'yib do'stlashuvi syujetning qiziqarli, muhim tarmoqlaridan biridir. Unga malomat ko'p bo'ladi. Akasi Ko'kaldosh poyga jarayonida unga: "Qorajon, sen lot-monotdan yuz o'girib, islomning



diniga kirib, sehirgar-jodugar bo'lib, baloga yo'liqib qolibsan", deya nafratini sochadi. Jazolab, tashlab ketadi. Islomni qabul qilgan, "o'z-o'zidan yuz o'g'irgan" Qorajon yangi, eng to'g'ri e'tiqodda asar so'ngigacha sobit turadi: "To o'lguncha yaratganga rost bo'ldim, O'z fe'limdan cho'p-u xasdan past bo'ldim, Xudoni o'rta solib do'st bo'ldim", deydi doston oxirlarida Barchinga. Barchin uning "chini bilan musulmon bo'lganini" boshdanoq eshitgan, bilgan, sinab ko'rishga ham ulgurgan, shod bo'lgan edi. Shu bois uni qaynisiday ko'radi.

Qorajonning rost dinga kirishi o'z oldingi ahli nazarida gunohdir – ota-bobolari dinidan chiqish, o'zbek bo'lib ketish, islomlashishdir. Qalmoqning bu qarashi o'zbeklik – islom, islomdalik – o'zbeklik degan umumlashma tasavvur darajasiga ko'tariladi asarda. Bu mazmunning islomiy-ma'rifiy pafosini yanada kuchaytirgan.

Muhtasham dostonning uzun voqealari rivojida turkiy musulmon xalqlar maishiy turmushida asrlar mobaynida kelayotgan xutba, fотиha, duo, namoz, nikoh, chuparon, qiz so'yatar, chimildiq, kampir o'ldi, it irillar, kuyov tovoq, kuyov uloq, vakilini berish singari urf-rasmlar, asl islom ta'limotlariga xos-noxosligidan qat'i nazar, musulmoncha borliq manzaralaridir. Ta'kidlash joizki, butun voqea-hodisalar tasvirida ezgulikka qarshi qutbning aslida qaysi diyor, qaysi el ekanligi, jug'rofiy joylashuvi aniq-tiniq aytilmaydi va bu usul idrokda zarracha mavhumlik paydo qilmaydi. Bayonda qarama-qarshi tomonning dunyodagi hech bir xalq sha'ni, or-nomusiga tegmaydigan yo'sinda Qalmoq, Kashal nomlari bilan ifodalanishi, ijodlanishi ham islomona ijod madaniyatining aksar o'zbek xalq dostonchiligidagi ajoyib bir poetik usulidir. Umuman olganda, "Alpomish"dagi serkurash sarguzashtlarning barchasi islomlashgan hamda islomdan g'ofil ikki yurt odamlari o'rtasida kechadiki, bu ko'p jihatdan dostonning ilk to'qilgan qadimiy sinkretik bosqichdan keyin, xususan, islomlashilgan o'rta asrlarda sayqal topganligiga dalolat qilishi mumkin. Qolaversa, dostonidan islomga doir hamma ifodalar olib tashlansa ham, motivda yakkaxudolik, ilohni bir va bor, ya'ni u – Tangridir, degan qarash yetakchilik qilib qolaveradi. Tangrichilik davri esa jahonning islomdan avvalgi nisbatan ilg'or diniy ong shakli bo'lib o'tgan.

Epik ijodiy imkoniyat va maydon, undagi xarakterlar, harakatlar dunyo hayotining dialektik qonuniyatlarini, sinovlar hikmatlarini atroflicha idrok ettiradi. Jumladan, ma'lum bir xalq xususida butunlay nafratomuz xulosaga kelishlar, har qanday xalqda ham yaxshi-yu yomon borligi haqiqatini tan olmaslik adolatsiz hukmdir. Haq ta'limot hamma masalada bo'lgani kabi bunda ham munosabat, yondashuvning mo'tadil, olijanob qoidalarini o'rgatadi. E'tiqodan to'g'ri yo'ldagi el-yurt ichida ham manfur, nobakor odamlarning uchrashi ajablanarli emas. Xalq dostonlarida bu hayotiy haqiqatning e'tirofi yuksak poetik talqinlariga ega.

"Malla savdogar" dostonidagi Ahmad qari timsoli ana shunday kimsalarning yorqin, umumlashma ko'rinishidir. U Go'ro'g'lining tog'asi bo'lib, butun umri, o'y-xayoli o'zining yovuz niyatlarini amalga oshirish bilan o'tayotgan bir makkor. Go'ro'g'lidan keyin uning navbatdagi vorisi bo'lmish Avazxonga nisbatan Ahmad qarining hasad-xusumati juda baland: Avazxonga ixlos, muhabbat ila boshqa yurtdan kelgan Oytumsaga u ko'z olaytiradi. Arazlab, xafalanib ketgan Oytumsaning izidan ketib, hozircha dom-daraksiz Avazning yo'qligidan foydalanib, katta fitnani boshlaydi. Go'ro'g'lini shoshtirib qo'yib va o'z yolg'onlariga ishontirib, Avazxonning uyini buzdiradi, xotini Uzunko'zni, bolalari – Nurali, Gulnorni azoblarga tinimsiz duchor qilib, asir olib, Misrga olib borib sotib yuboradi.

Muallif-baxshining, doston qahramonlarining tillarida Ahmad qari shayton sifati bilan ta'riflanadi: "Kulib turgan shayton"ning fitnalarini jiyan Go'ro'g'lining ko'zlari ilg'amaydi; "Oshig'i olchi bo'ldi Ahmad shaytonning"; "Ahmad degan bir mo'ysafid bor ekan, Shul shaytonga zo'rligimni bildirdim" (Oytumsa); "Ahmad shayton degan iflos noming bor" (Nurali) va hokazo.

Ahmad qari Go'ro'g'li turkumida yorqin tasvirlangan ins-shayton timsolidir. Uning shaytonga xos qator hunarlari "Go'ro'g'lining safari" dostonida ham ochiladi. Bunda u "labi burishgan, manglayi tirishgan, gaping noto'g'ri degan odam bilan oltoy bo'lsa ham yotib olib surishgan", "har so'zi tuhmat", umr bo'yi hech bir odamga hech bir yaxshilik qilmagan ablahdir.

Dunyoda misli yo'q Chambilni bunyod va obod aylagan, xalqini boyitgan, hech bir elga ozor bermagan, manmanlik nima bilmas va ibodatida bardavom Go'ro'g'li sulton hajga borishga niyatlangan kunlarda Ahmad qarining razil qiyofasi yana namoyon bo'ladi. U mamlakatga podshohlikni – "davlatga boshliq"likni egallash ilinjida yonadi. Maslahat vaqtida boshqa nomzodlarni ishonchsizga chiqarib, "Shunday kunda tog'a yarar kuningga", deydi. Hatto Go'ro'g'lining farzandsizligini yuziga soladi. Lekin jiyani "ulug' niyat oldidan shaytonga hay beradi". Doston oxirigacha uning fitnalari tugamaydi, qancha noxushliklarga u sabab bo'ladi. Alqissa, yolg'onlari o'zini xor va sharmanda qiladi.

Dostonning bosh mavzusi Go'ro'g'lining haj safaridir. Bu safar qizg'in voqealar, kurashlar, bosh

qahramonlarning donishona his-tuyg'ulari, islomga bo'lgan cheksiz muhabbatlari, imoniy amallari zamirida kechadi. Omonxon eshon – sultonning piri “jang-u jadallarga o'rgangan yovqur jahongirning dini islomga e'tiqod qilishi”ni tahsinga loyiq deb olqishlaydi. Go'ro'g'lining nazdida “Qilichning tig'idan, keskir po'latning damidan ming marta o'tkir ekan islomning nuri”. O'zini gunohlari to'lib-toshgan inson deb biladi u. Ko'ziga nur, beliga quvvat bo'lgan islomda mahkam turmoqni, gunohlarining to'kilishini, ruhining poklanishini istaydi:

Musulmonman, hajni qildim ixtiyor,  
Bu ishimdan hali xalqim bexabar.  
Ters gapirmay, ochiq yuzli bo'linglar,  
Yolg'izning yo'ldoshi Sattor-u Jabbor.

O'zga yurt hukmdori Farmon arabning Go'ro'g'li sultonga adovati bor. Uning hajga o'tlanayotganini eshitib, buni eng qulay vaziyat deb biladi. Safarda Go'ro'g'li qurolsiz, askarsiz bo'ladi. Farmon arab safar yo'llariga o'n minglab askarlarini, mastonlar va josuslarni joylashtiradi. Go'ro'g'lini, G'irotni asir olmoqchi, Chambilni yakson qilmoqchi, talamoqchi. Ammo Go'ro'g'li, G'irotni, Omonxon pir chiltonlar yordamida, tinimsiz qilgan duolari sabab ularni g'aflatda qoldirib, to'siqlardan mardona o'tib ketishadi. Farmon arab ularning qaytishida ham shu usulini qo'llaydi. Oqbo'ta lashkarboshisiga shunday deydi: “Hey bek, Go'ro'g'libek haj bo'lib qaytdi, ko'ramiz, uning hajligi bilan islomi zo'rmi, bizning o'n sakkiz darani boylab yotgan polvon-u lashkarlarimiz, qancha mastonlarimiz, nayza-yu sonsiz qora miltiqlarimiz zo'rmi?” deya bo'kiradi. Biroq bular bu gal ham g'aflatda qoladi: hojilar yo'lini “Islom nuri yoritib bormoqda, o'n sakkiz darani band qilib yotgan lashkarlar sehlaniib, dong qotgan, mergan miltig'ini o'qlab g'aflatga ketgan, polvonlar toshga suyalib uyquga o'tgan, mastonlar yerni chizib, tosh qotgan...”

Doston voqealari rivojida qahramonlarning ruhiy holati bilan bog'liq holda hamd, munojot, iltijo kabi termalar berilib, Alloh, islom dini va Muhammad alayhissalom vasf etiladi. Bu unsurlar asarning asosiy g'oyasini mustahkamlab, qahramonlarning e'tiqodiy maqomini ochib beradi. Umuman, doston islomiy e'tiqodning afzalligini tarannum etuvchi, diniy-ma'rifiy qarashlarni xalqona shaklda targ'ib qiluvchi asar sifatida namoyon bo'ladi. Uning bosh motivi — islom ta'limotining insonlarni yaxshilik va ezgulik sari birlashtirish g'oyasi — Go'ro'g'li sulton obrazida umumlashtiriladi. “...odamlarni qarang, qancha-qancha mamlakatlarni oldim, necha martalab suluv qizlarni, parilarni Chambilga keltirdim, karvon-karvon oltin-u kumushlarni chetdan olib kelib, xazinaga to'ktirdim, eli-yurtimga oltin tangalarni sochdim. Necha marta zafar quchib, g'olib bo'lib kelganimda ham amaldorlarimdan boshqa bironta odam oldimga chiqib, “Zafar muborak”, demagan edi. Omonxon, islomning kuchini qarang, musulmonchilikni qarang, hamma qutlovga ko'chib chiqqan, boshim yer uzra ta'zimda”. Shu kabi mulohazalar ayni vaqtda folklorshunosligimizning janrlar tasnifchiligidagi: “Qahramonlik dostonlari xalqning mustaqil etnos sifatida shakllanish davriga to'g'ri kelishi” [Mirzaeva, 2004: 19] degan qarashni ham yodga soladi. Mazkur qarashni inkor etmagan holda va “Alpomish”, “Go'ro'g'li” turkumiga kiruvchi ba'zi dostonlarga oid yuqoridagi singari kuzatishlar natijasida etnos sifatida shakllanish hodisasi bilan bir qatorda qahramonlik dostonlarining tarixiy to'qilishini muayyan xalqlarning e'tiqodiy yangilanishi, ular ijtimoiy-siyosiy tuzumlarining keskin o'zgarishlari bilan ham bog'lash maqsadga muvofiq deb bilamiz. Bizningcha, bu mavjud ma'noni to'ldiradi. Chunki doston “xalq ommasining maishiy hayoti, ijtimoiy-siyosiy turmushi, kundalik faoliyati bilan mahkam bog'langan, o'ziga xos g'oyaviy-estetik sistemaga ega bo'lgan ijod” [Mirzaev, 1989: 378]. Binobarin, epik ijod mahsulining badiiy maydoni va badiiy vaqtida, shu qamrovdagi qahramonlarning shuuriy tarzida u yoki bu e'tiqodiy pozitsiyaning namoyon bo'lishi adabiyotda hayotning o'zidan ko'chib o'tadigan qonuniyatdir. Odatda, mumtoz asarlar obrazlarida tajassumini topgan bu ruhoniy dunyoqarash tarzlari butun xalqning muayyan tarixiy davrdagi e'tiqod shakli va darajasini ifodalab turadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. — T.: O'qituvchi, 1980.
2. Жирмунский В.М. Народный героический эпос. — Л.: ГИХЛ, 1962.
3. Mirzayeva S.R. O'zbek xalq romantik dostonlari poetikasi. — T.: Fan, 2004.
4. Mirzayev T. Bir-ikki izoh // Nurali. Dostonlar. — T., 1989. — B. 378–381.
5. Eshonqulov J., Ergashev A. Yangilanayotgan azaliy an'analar // Go'ro'g'lining safari. Dostonlar. — T.: Adabiyot, 2022. — B. 3–14.
6. Alpomish. Doston. — T.: Adabiyot va san'at, 1979.
7. Go'ro'g'lining safari. Dostonlar. — T.: Adabiyot, 2022.